

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Tabiiy fanlar fakulteti

Geografiya yo'nalishi 3-bosqich 301-guruh talabasi

Turg'unaliyeva Shaxnoza

Jahon mamlakatlari ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasi fanidan

ROSSIYA

mavzusida tayyorlagan

REFERATI



NAMANGAN 2015

MAVZU: ROSSIYA

Reja:

1. Siyosiy, iqtisodiy-geografik holati.
2. Tabiiy sharoiti va resurslari
3. Aholisi.
4. Xo'jaligi
5. Xizmatlar sohasi, transporti.
6. Iqtisodiy rayonlari

Maydoni – 17075 ming km²

Aholisi – 141,9 mln. kishi (2008 yil, iyul)

Poytaxti – Moskva (Aholisi – 9,0 mln. kishi, 2007 y.)

Rossiya Federatsiyasi (RF) Yevrosiyo materigining shimoliy qismida joylashgan davlat. Rossiya hududinig 1/3 qismi Yevropa (SHarqiy Yevropa tekisligi, Ural, SHimoliy Kavkaz) va 2/3 qismi Osiyoga (Sibir va Uzoq SHarq) to'g'ri keladi. Rossiya hududi jihatidan dunyodagi eng katta mamlakat (AQSH, Kanada va Xitoy kabi mamlakatlar hududidan 1,8 marta katta). SHimoldan janubga 4 ming km va g'arbdan sharqqa 9 ming km ga cho'zilgan. Rossiya chegaralarinig umumiy uzunligi 59,96 ming km (shundan, dengiz chegaralari 40,0 ming km, quruqlik chegaralari 19961 km) bo'lib, shimol va shimoli-sharqda dengiz chegaralari 12 dengiz mili (22,7 km) va materik, orollar qirg'oqlaridan 200 milli (370 km atrofida) dengiz iqtisodiy mintaqasiga to'g'ri keladi. Rossiya SHarqiy yarim sharda joylashgan bo'lsada, Vrangel orolining bir qismi va CHukotka yarim oroli G'arbiy yarim shardadir. SHarqdan-g'arbga tomon 11 ta soat mintaqasini egallaydi va dunyodagi birona mamlakat bunday geografik holatga ega emas.

Siyosiy, iqtisodiy-geografik holati.

- O'tgan asrning 90-yillariga qadar RF quruqlik orqali 8 ta xorijiy davlat bilan chegaralangan bo'lsa, bugun 14 ta xorijiy davlatlar bilan chegaralanishi (dengiz orqali AQSH, Yaponiya);

- G'arbdagi ya'ni SHarqiy Yevropadagi sobiq sotsialistik davlatlarning NATO a'zolariga aylanishi va bu harbiy-siyosiy blokning Rossiya chegaralariga yaqinlashishi;

- Yangi suveren davlatlar (Ukraina, Belarus, Boltiq bo'yi davlatlari) tranzit holatini Rossiya uchun savdo predmetiga aylantirishi (portlardan foydalanish, yuklarni olib o'tish, neft va gaz quvurlarini o'tkazish va boshq.);

- Rossiyani Qozog'iston katta hududda Markaziy Osiyo davlatlari, Gruziya va Ozarbayjon esa Armaniston bilan ajratib qo'yishi tufayli aloqalarning murakkablashuvi;

- RF chegaralarining Atlantika okeani (Boltiq, Qora va Azov), Tinch okeani (Bering, Oxota va Yapon), SHimoliy Muz okeani (Barents, Oq, Kara, Laptevlar, SHarqiy Sibir va CHukotka) dengizlari hamda berk Kaspiy dengizi suvlarining yuvib turishi xalqaro dengiz savdo trassalariga chiqish, dunyodagi mamlakatlar bilan savdo-sotiq aloqalarinig olib borish imkoniyatlarining kattaligi;

- MDH doirasida markaziy holatni egallashi va hududidan xalqaro temir yo'l, avtomobil yo'llarining o'tishi, portlaridan boshqa hamdo'stlik davlatlarining foydalanishi; (Hamdo'stlikka kiruvchi davlatlarning ko'pchiligi faqat Rossiya orqali tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshiradi)

- Evropa mamlakatlari bilan SHarqiy va Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlarini bog'lovchi magistral temir yo'llariga egaligi, O'rta dengiz bo'yi, Janubi-G'arbiy va Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro aloqalar olib borish imkoniyatlari kattaligi bilan ajralib turadi.

Rossiya – Federativ Respublika, amaldagi Konstitutsiya 1993 yil 12 dekabrda qabul qilingan. Davlat boshlig'i Prezident. Qonun chiqaruvchi organ – Federal yig'ilish bo'lib, u 2 palata (Senat va Davlat Dumasidan iborat. Ijro etuvchi hokimiyat Vazirlar Kengashi. Siyosiy-ma'muriy jihatdan 85 sub'ektdan, ya'ni 21 respublika, 8 o'lka, 47 viloyat, 2 federal shahar (Moskva va Sankt-Peterburg), 1 muxtor viloyat, 6 muxtor okrugga bo'linadi. RF hududi 8 ta Federal okrugga bo'lingan: Markaziy, SHimoli-G'arbiy, Janubiy, Volgabo'yi, Ural, Sibir, Uzoq SHarq federal okruglari tashkil qilindi. Keyingi yillarda federal boshqaruvni,

mintaqaviy tarkibiy takomillashtirish maqsadida bir qator ma'muriy birliklar o'zaro birlashtirildi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. RF hududining 70% tekisliklardan iborat. Uchta yirik – SHarqiy Yevropa (yoki Rus) tekisligi, O'rta Sibir yassi tog'ligi va G'arbiy Sibir tekisliklari alohida ajralib turadi. G'arbda SHarqiy Yevropa (Rus) tekisligi joylashgan bo'lib, unda balandligi 250-400 m bo'lgan Valday, O'rta Rus, Volgabo'yi, Bugulma-Belebey, Yuqori Kama va boshqa qirlar, Oka-Don, Kaspiybo'yi pasttekisliklari, SHarqda Ural tog' tizmasi, G'arbiy Sibir tekisligi, Yenisey va Lena daryolari oralig'ida O'rta Sibir yassi tog'ligi, uning sharqida Markaziy Yoqutiston pasttekisligi bor. Mamlakatning sharqi va janubida tog'lar ko'p. Katta Kavkaz tog'ining shimoliy yon bag'rida Rossiyadagi eng baland nuqta – Elbrus tog'i (5642 m) joylashgan. Sibirda Oltoy, Kuznetsk Olatovi, G'arbiy Sayan tog'lari, Tuva, Baykalbo'yi, Baykal ortidagi tog'lar va Stanovoy tizmasi, Verxoyansk, CHersk tog' tizmalari va yassi tog'lar, Uzoq SHarqda – CHukotka, Koryak va boshqa tog' tizmalari mavjud.

Qudratli tog' hosil bo'lish jarayonlari va litosfera plitasi harakati (Tinch okeani va Yevrosiyo) davom etmoqda. Natijada, intensiv yer qimirlashlari va dengiz halokatli qalqishlari bo'lib turadi. Vulqon faoliyati kuchli, geyzerlar (iliq suvlar va bug'lar) otilib turadi (Kamchatka yarim oroli). Xilma-xil rel'ef shakllari, katta hudud, geologik tuzilishi, tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar ko'plab foydali qazilmalarning shaklanishiga olib kelgan.

Foydali qazilmalari. RF zaminida Mendelev davriy jadvalidagi deyarli barcha elementlar mavjud. Mamlakat energiya xom ashyosi zahiralari jihatidan milliy iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, balki jahon iqtisodiyotida ham yetakchi o'rinni egallaydi. CHunonchi, dunyodagi bashorat qilingan neft zahiralarning 13-15%, tabiiy gaz zahiralarning 42% va ko'mirning 43% Rossiya hissasiga to'g'ri keladi. Rossiyaning chekka shimolidagi istiqbolli dengiz (shel'f) mintaqasidagi neft zahiralari Fors ko'rfazi va Kaspiy dengizi havzalariga qiyoslanmoqda. Bugungi kunda razvedka qilingan dunyodagi neft zahiralarning 13% (7 mlrd. tonna), 35% tabiiy gaz va 12% ko'mirning Rossiyaga to'g'ri kelishi, mamlakatning

yaqin istiqbolda ham jahon iqtisodiyoti «o'txonasi» rolini o'ynashidan dalolat beradi. Yirik neft-gaz havzalari SHimoliy Kavkaz, Volgabo'yi va Ural oldi, Timan-Pechora, G'arbiy Sibir (tabiiy gaz-Urengoy, Yamburg, Medvejye va boshq., neft – Samotlor, Megionsk, Surgut va boshq), Yoqutiston va Saxalin, Barents va Kara dengiz shelf mintaqalari (tabiiy gaz), toshko'mir – Kuznetsk, Rostov (Donetsk), Pechora, Sibir va Uzoq SHarqda (Kansk-Achinsk, Tungus va Yoqutiston (Lena) havzalari va boshq.), temir rudasi KMA¹, Kola yarim oroli (Olenogorsk, Kovdar, Kostomuksha), Ural, Sibir va Uzoq SHarq, rangli metallardan mis, boksit, qo'rg'oshin-rux, nikel, nodir va kamyob metallar va qimmatbaho toshlar, olmos, oltin, kumush, platina, kobalt va boshqa minerallarga ega. Noruda mahsulotlardan –fosforit, osh tuzi, kaliyli tuzlar (Kola yarim oroli, Kirov viloyati, Solikamsk va boshq.), qurilish meteriallariga g'oyat boydir. Unchalik to'liq bo'lmagan ma'lumotlarga ko'ra RF yer osti boyliklari 80 trln AQSH doll.dan yuqoriroq baholanadi.

Iqlimi. Rossiya iqlimining o'ziga xos xususiyatlari bir qator geografik omillar – geografik holati, hududining g'arbdan-sharqqa va shimoldan-janubga katta masofaga cho'zilganligi, g'oyat xilma-xil rel'ef va okeanlar (Atlantika okeani, SHimoliy Muz okeani va qisman Tinch okeani) bilan bog'liq kontinental, shuningdek, SHimoli-G'arbda dengiz iqlimi, Sibir va Uzoq SHarqning shimolida keskin kontinental iqlim bo'lsa, janubida musson iqlim (qish sovuq, qor kam yog'adi va yozi mo''tadil iliq) qaror topgan. Yanvarning o'rtacha harorati Yevropa qismining G'arbida va SHimoliy Kavkazda 0-5°, Saxa sharqida-40⁰-50⁰, jumladan, Oymyakonda - 72,2⁰ bo'ladi. Yoz nisbatan iliq, iyulning o'rtacha harorati 1° dan (Sibir shimoli) 24-25° gacha. Yillik yog'in miqdori Kavkaz tog'larida 3200 mm.dan Uzoq SHarqda 1000 mm, SHarqiy Yevropa tekisligining o'rmon zonasida 850 mm, Kaspiybo'yi tekisligining cho'llarida 170 mm. Rossiya hududining katta qismidagi iqlim deqqonchilik uchun noqulay. Mamlakatda shimoldan-janubga tomon o'ziga xos tabiat zonalari arktika sahrolari, tundra, o'rmon-tundra, o'rmon, o'rmon-cho'l, cho'l, chala cho'llar shakllangan.

¹ Курк-Магнит аномаяси

Suv resurslari. RF hududida 2,5 mln. daryo va 3 mln. atrofida ko'llar bor (eng katta ko'l – Kaspiy dengizi, eng chuqur va chuchuk ko'l Baykal dunyodagi 1/5 qism chuchuk suv zahirasi bor).

Daryolari – SHimoliy Muz okeani, Tinch va Atlantika okeani havzalariga va berk-havza Kaspiy dengiziga kiradi. SHimoliy Muz okeaniga – Pechora, Mezen', SHimoliy Dvina, Ob', Yenisey, Lena (4400 km), Yana va boshq., Tinch okeani havzasiga – Amur (4416 km), Anadir, Penjina va boshq. Atlantika okeani havzasiga – Neva, Don, Kuban, Kaspiy berk havzasiga – Volga (Evropadagi eng uzun daryo, 3530 km), Ural, Terek, Sulak va boshq. kiradi. Volga daryosi Rossiya iqtisodiy va ijtimoiy hayotida juda katta o'rin tutadi va «ona daryo» deb ham yuritiladi. Yirik suv omborlari qurilishi tufayli katta daryo kemalarining qatnash imkoniyati yaratilgan va yirik GESlar barpo qilingan. Volga-Don kanali Azov va Qora dengizlarni, Volga-Baltika va Belomor-Baltika kanallari Boltiq va Oq dengizlarni bog'laydi hamda uzluksiz kemalar qatnaydigan yagona suv yo'li barpo etilgan. Daryolardan – kemachilikda, yog'och oqizishda, shaharlarning suv ta'minotida, sug'orishda, baliqchilik, rekreatsiya va boshqa maqsadlarda foydalaniladi. 1200 ga yaqin yirik suv omborlari (Bratsk, Krasnoyarsk, Ust'-Ilim, Volgograd, Ribinsk va boshq.) barpo etilgan.

Rossiya yer osti suvlariga, ayniqsa mineral buloqlarga juda boy. Ayni vaqtda, hududning katta qismi (11 mln. km²) janubda bir necha santimetrdan, shimolda bir necha yuz metrgacha bo'lgan doimiy muzliklar bilan qoplangan bo'lib, xo'jalik ishlarini olib borishda ma'lum qiyinchiliklarni ham yuzaga keltiradi.

Rossiyaning katta qismida botqoqliklar (G'arbiy Sibir va Rossiya Yevropa qismi, Markaziy Rossiya (Mening) tarqalgan.

Er va o'rmon resurslari. Rossiya juda katta yer fondiga ega bo'lishiga (quruqlikning 1/8 qismi) qaramay, unumdor qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar (haydaladigan yerlar, yaylov va o'tloqlar) umumiy yer maydonining 13% ga yaqinini (shundan haydaladigan yerlar – 132,3 mln. ga yoki mamlakat yer resurslarining 8%) tashkil qiladi, xolos. Ammo, aholi jon boshiga haydaladigan

yerlar to'g'ri kelishi jihatdan yuqori 0,87 ga.ni tashkil etadi (bu holat Qozog'istonda 2,0 ga, Kanadada 1,6 ga, AQSHda 0,51 ga, Xitoyda 0,07 ga, Yaponiyada 0,03 ga). Haydaladigan yerlarning asosiy qismi Rossiyaning Yevropa qismi, Ural va Sibirga to'g'ri keladi. O'tloqlar Rossiyaning Yevropa qismi shimolida, Qoratuproq mintaqasida (erlarning meliorativ holatini yaxshilash bilan bog'liq), yaylovlar Rus tekisligining janubi-sharqiy rayonlari, Kavkaz va boshqa tog'li rayonlarda, Sibir va Uzoq SHarqning tundra mintaqasida (bug'u boqiladigan yaylovlar) tarqalgan. Rossiya qishloq xo'jaligini (chorvachilik va don dehqonchiligi) rivojlantirishning juda katta imkoniyatlariga ega va mavjud yer resurslaridan oqilona foydalanish negizida istiqbolda chetga qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qiluvchi eng yirik davlatga aylanishi mumkin.

Rossiya o'rmon resurslariga juda boy bo'lib (yog'och zahiralari 75 mlrd. m³ deb baholanadi), dunyodagi o'rmonlarning 25% uning hissasiga to'g'ri keladi. O'rmonlar Sibir, Uzoq SHarq, Rossiya Yevropa qismida (SHimoliy Dvina, Pechora, Kama (Rossiya Yevropa qismining shimoli) daryolari havzasida to'plangan. Ammo, o'rmonlardan majmualiy foydalanish darajasi jihatdan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan ancha orqada.

Rossiya dunyo mamlakatlari o'rtasida nihoyatda xilma-xil o'simlik va hayvonot dunyosiga boyligi bilan ajralib turadi.

Rossiyada tabiatning go'zal manzaralari – flora va faunani saqlash maqsadida 100 dan ortiq tabiat qo'riqxonalari (33,3 mln. ga) va 5 ta milliy bog' (6,7 mln. ga) –Oltoy, Astraxan, Barguzin, Kavkaz, Pechora-Ilich va boshq. tashkillangan.

Aholisi. RF aholisi 2008 yil 141,9 mln. kishi bo'lib, dunyoda aholi soni jihatdan 8-o'rinda turadi (Xitoy, Hindiston, AQSH, Indoneziya va Braziliya, Nigeriya, Bangladesh). Rossiyaning Yevropa qismida 78,5% va Osiyo qismida (Sibir va Uzoq SHarq) 21,5% aholi yashaydi. Aholi juda notekis joylashgan bo'lib, ikkita, ya'ni, mamlakat hududining 1/3 qismida (Rossiyaning Yevropa qismi) 93% aholi joylashgan «bosh mintaqqa» va mamlakat hududining 2/3 qismida (Sibir, Uzoq SHarq,CHekka shimol) 7% aholi joylashgan «o'choq» mintaqalariga

ajratish mumkin. Rossiya bo'yicha aholining o'rtacha zichligi har bir km kv. hududga 8 kishi (Evropa qismida-27 va Osiyo qismida 2 kishidan ozroq). Markaziy Rossiyadan (Moskva va Moskva viloyatida 324 kishi) aholi zichligi shimolga, janub va sharqqa tomon kamayib boradi. Markaziy iqtisodiy rayonda har 1 km²ga 62 kishi, SHimoliy Kavkaz iqtisodiy rayonida - 50,5, Markaziy Qoratuproq iqtisodiy rayonida - 47,0 kishi to'g'ri kelsa, Uzoq SHarqda 1,2, SHarqiy Sibirda 2,2 va SHimoliy iqtisodiy rayonlarda 4,0 kishidan to'g'ri keladi.

Bugungi kunda (2008 y.) tug'ilish koeffitsienti 12/1000, o'lim koeffitsienti 15/1000 va tabiiy o'sish koeffitsienti manfiy ko'rsatkichga -0,3 egadir. Hozirgi bosqichda demografik jarayon tug'ilish va tabiiy o'sishning qisqarishi bilan ko'zga tashlanadi. Bashoratlarga ko'ra Rossiya aholisi 2025 yilda 129,3 mln. kishini tashkil etsa, 2050 yilga kelib aholi soni 110,1 mln. kishiga tushib qoladi. Aholining jinsiy tarkibida erkaklar - 46,9% va ayollar - 53,1% dan iborat. Mehnatga yaroqlilar aholining 57,0%, (2007 yilda mehnatga yaroqli aholi soni 74,26 mln. kishini tashkil etdi.), mehnatga yaroqli yoshgacha bo'lganlar aholining 22,4% (aholining 1/3 qismidan ozrog'ini), katta yoshdagilar 20,6%ni tashkil qiladi. Mehnat resurslari Rossiya aholisining 60% dan iborat.

Rossiya aholisining milliy tarkibi g'oyat xilma-xil va murakkab. 100 dan ortiq millat va xalqlar 7 ta til oilasi (Hind-Evropa, Oltoy, Ural, SHimoliy Kavkaz, CHukotka-Kamchatka, Eskimos-aleut, Kartvel) tarkibiga kiradi. Eng ko'p tarqalgan din – xristianlik (pravoslav), shuningdek, islom, buddizm hamda katolitsizm, iudaizm va boshqa dinlar ham mavjud.

Rossiyada 12000 aholisi bo'lgan manzilgohlar shahar maqomiga ega. Ammo, RF regionlari bo'yicha shahar tushunchasiga turlicha yondashiladi. RF yuqori urbanizatsiyalashgan, shahar aholisi 73% bo'lib, 1 mln. dan ortiq aholiga ega bo'lgan shaharlarda 23% shahar aholisi, 500 mingdan 1 mln.gacha kishigacha bo'lgan shaharlarda 12,8%, 100000 dan 500000 gacha aholi bo'lgan shaharlarda 27,2%, 100000 gacha aholiga ega bo'lgan shaharlarda 25,2% aholi yashaydi. Bugungi kunda RFda 13 ta millioner shaharlar bor va 20 ta shaharda 500 mingdan 1 mln.gacha aholi yashaydi. Yirik shahar aglomeratsiyalari – megalopolislar

shakllangan (Moskva, Sankt-Peterburg, Nijniy Novgorod, Yekateringburg, Samara, Novosibirsk va boshq.)

Xo'jaligi. Rossiya bozor munosablari jadal rivojlanayotgan industrial-agrar mamlakat. Iqtisodiyotda sanoat yetakchi o'rin tutadi. XX asr 90-yillardan boshlab chuqur bozor islohotlari amalga oshirilmoqda.

Rossiya milliy iqtisodiyoti rivojlanishidagi bugungi xususiyati ikki yoqlama bo'lib, bir tomondan sanoatning, ayniqsa, ilmtalab sanoat tarmoqlarining rivojlanganlik darajasi, ilmiy-texnik salohiyat, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jihatdan dunyoda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirsa, ikkinchi tomondan, aholi jon boshiga YaIM to'g'ri kelishi, turmush darajasi va uning sifat ko'rsatkichlari jihatdan ancha orqada.

Rossiya hissasiga dunyo xo'jaligidagi-11% qazib chiqarilayotgan neft, 28% tabiiy gaz va 14% ko'mir to'g'ri keladi. Ayni vaqtda, Rossiya dunyo mamlakatlari o'rtasida tabiiy gaz qazib chiqarishda 1-o'rinda, ko'mir qazib chiqarish, kartoshka va sut yetishtirishda 2-o'rinda, neft qazib chiqarish, sul'fat kislotasi (monogidrat) ishlab chiqarish bo'yicha 3-o'rinda, elektr energiyasi hosil qilish, cho'yan va po'lat eritish, temir rudasi qazib chiqarish, yog'och tayyorlash, ip-gazlama ishlab chiqarish, don va dukkakliklar, qand lavlagi yetishtirish bo'yicha 4-o'rinda, tayyor qora metallar, arralanuvchi materiallar, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish bo'yicha 5-o'rinda, tsellyuloza ishlab chiqarish, go'sht (so'yilgan vaznda), hayvon yog'i tayyorlash bo'yicha 6-o'rinda, paypoq-chulki mahsulotlari, baliq ovlash bo'yicha 8-o'rinda, yengil avtomobillar va tsement ishlab chiqarish bo'yicha 11-o'rinda, jun gazlamalar, poyabzal ishlab chiqarish bo'yicha 12-o'rinda va qog'oz-karton ishlab chiqarish, shakar, o'simlik yog'i tayyorlash bo'yicha 14-o'rinda turadi. Ayni vaqtda, harbiy sanoat majmuasi va kosmosni o'zlashtirish bo'yicha Rossiya bilan dunyoda faqat AQSH raqobatlasha oladi, xolos.

SHuningdek, Rossiya YaIM hajmi jihatidan dunyoda 8-o'rinda turadi va hisoblash metodikasi (valyuta to'lov qobiliyati yoki ayriboshlash kursi) bo'yicha hisoblanganda AQSH YaIM ning 10%ga teng. Aholi jon boshiga YaIM to'g'ri kelishi jihatdan Rossiya AQSHga nisbatan 5 marta orqada. Dunyo mamlakatlari

o'rtasida aholi jon boshiga yillik YaIM bo'yicha 59-o'rinda, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha 53-o'rinda, ish bilan band bo'lgan bir kishi hisobiga sof yillik shartli ishlab chiqarish (mehnat unumdorligi) bo'yicha 70-o'rinda turadi.

Rossiya ulkan imkoniyatlar mamlakati bo'lib, iqtisodiy o'sish sur'atlarining intensiv omillari va resurslariga (iqtisodiy, tabiiy, ilmiy-texnik, inson kapitali va boshq.) egadir.

Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining asosi bu inson kapitalidir. Ayniqsa, Rossiya fuqorolarining ma'lumoti va malakaviy tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lib, xorijiy sheriklarning ta'kidlashicha, ular istalgan texnik, ilmiy va iqtisodiy muammolarni yechishi hamda turli sharoitda ishlab chiqarish va tijorat maqsadlariga tez moslasha olishi bilan ajralib turadi. Keyingi yillarda esa zamonaviy – menejment, marketing, moliya sohalarida tajriba va malakaga ega Rossiya bozorlarida muvaffaqiyatli ishlayotganlar chet el firma va kompaniyalari tomonidan ishga taklif qilinmoqda.

2000 yildan boshlab Rossiya iqtisodiyotida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu jarayon iqtisodiy islohotlarning yanada chuqurlashuvida, milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, ilmtalab sohalarning, ayniqsa, avia-raketa-kosmik sanoati bilan bog'liq tarmoqlarning jadal rivojlanishida ko'zga tashlanmoqda. 2008 yilda jahon moliya buhroniga tortilgan Rossiya iqtisodiyotning pasayish jarayonlarini bartaraf etish yuzasidan bir qator tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Ayni vaqtda, Rossiya MDH iqtisodiy doirasida yetakchi mavqeni egallab turibdi. Uning hissasiga YaIM ning 60% ortig'i va hamkorlikdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining 2/3 qismi to'g'ri keladi.

Sanoati. Rossiya sanoati bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida muhim tarmoq o'zgarishlarini boshidan kechirdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda qazib beruvchi sanoat tarmoqlari (20%) va yoqilg'i-energetika majmuasi hissasi ortdi (30,6%) hamda mudofaa va investitsion faoliyat bilan bog'liq tarmoqlar (kimyo, mashinasozlik, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash, tsellyuloza-qog'oz) va yengil sanoat ulushi qisqardi.

90-yillarning oxirlaridan boshlab sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sezilarli darajada rivojlana boshladi (1997 yil 1,5% ga o'sdi). Bugungi kunda Rossiya hukumati amalga oshirayotgan iqtisodiy siyosat sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit hozirlamoqda. 2000 yillar boshlaridan 2010 yilga Rossiyada YaIMni ikki hissa ko'paytirish yuzasidan davlat dasturlari amalga oshirilmoqda.

Rossiya yoqilg'i-energetika majmuasi neft, gaz, ko'mir qazib chiqarish va elektro-energetika sanoatini o'z tarkibiga oladi. Neft zahiralari jihatidan dunyoda oltinchi o'rinda turadi (Saudiya Arabistoni, Quvayt, BAA, Iroq va Eron) va yiliga 300 mln. t yoki dunyoda qazib olinayotgan neftning 11%). Neft – SHimoliy Kavkaz, Volga-Ural, Timan-Pechora, G'arbiy Sibir (300 dan ortiq neft-gaz konlari ochilgan bo'lib, mamlakatdagi 70% neft va tabiiy gaz qazib olinmoqda), Uzoq SHarq, Saxalin oroli, Kaliningrad viloyati va boshqa hududlardan qazib olinmoqda. Yirik neftni qayta ishlash zavodlari neft quvurlari, trassalari atrofida va ommaviy iste'mol rayonlarida (Angarsk, Volgograd, Grozniy, Kirishi, Krasnodar, Komsomol'sk-na-Amur, Kstova, Moskva, Omsk, Perm, Ryazan, Saratov, Syzran, Tuapse va boshq.) joylashgan. Neft qazib olish va uni qayta ishlashda «Lukoil», «Curgutneft», «Slavneft», «Rosneft», «Bashneftxim» kompaniya va firmalari asosiy rol o'ynaydi. Qazib olingan neft va neft mahsulotlarining 99,5% «Transneft» birlashmasi magistral quvurlari (48,5 ming km) orqali tashiladi. Yirik magistral neft quvurlari – Volga – Ural tizimi («Drujba» neft quvuri ham kiradi), G'arbiy Sibir tizimi va SHimoliy Kavkaz tizimlariga kiradi. Rossiya nefti Buyuk Britaniya va Irlandiya, SHarqiy Yevropa, O'rta dengiz bo'yi mamlakatlari, G'arbiy Yevropa AQSH va Kanadaga eksport qilinadi.

Gaz sanoati rivojlangan bo'lib, uning zahiralari jihatidan Rossiya Yevropada monopolist hisoblanadi va yiliga 600 mlrd m³ atrofida qazib chiqaradi. Tabiiy gaz asosan G'arbiy Sibir (Urengoy, Yamburg, Medvejye va boshq.), SHimoliy Kavkaz (Kuban, Azov bo'yi, Stavropol), Ural (Orenburg), Quyi Volgabo'yi (Astraxan), Komi (Vuktl va boshq.), Yoqutiston (Vilyuy) va Saxalindan qazib

chiqarilmoqda. Bugungi kunda 90% qazib olinayotgan tabiiy gaz SHarqiy rayonlardan (G'arbiy Sibirda va Yamal-Nenetskdan 88%) qazib olinmoqda. Orenburg, Astraxanь, Sosnagorsk (Komi Resp), G'arbiy Sibirda gazni qayta ishlash markazlari shakllandi.

Rossiyada qazib chiqarilayotgan tabiiy gazning 94% «Gazprom» hissasiga to'g'ri keladi. Magistral gaz quvurlarining uzunligi Rossiya hududida 80 ming km va MDH doirasida 140 ming km. Asosiy magistral gaz quvurlar G'arbiy Sibirь, Volga bo'yi, Ural, SHimoliy Kavkazdan Markaziy Rossiya, Boltiqbo'yi davlatlari, Belarusь, Moldova, Ukraina, SHarqiy va G'arbiy Yevropa mamlakatlariga yo'nalgan. Bugungi kunda istiqbolli loyiha «Yamal-Evropa» gaz quvuri (4000 km) ya'ni Yamal yarim orolidan Markaziy Rossiya, Belarusь, Polsha orqali Germaniyaga shuningdek, SHimoliy Yevropa, SHarqiy Osiyoga, xatto Avstraliyaga qadar yo'nalgan loyihalar o'rganilmoqda.

Ko'mir sanoatida toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir qazib chiqariladi. Yiliga 244 mln. t. ko'mir qazib chiqariladi va 20 mln. t eksport qilinadi. Ko'mir yoqilg'i va kimyo sanoatida ishlatiladi. Ko'mir zahiralar bo'yicha dunyoda 2 o'rinda (Xitoydan so'ng) turadi. Yirik havzalari – Tunguss, Lena, Kansk-Achinsk (qo'ng'ir ko'mir), Kuznetsk, Pechora va Taymir, Janubiy Yoqutiston va boshq.

Ko'mir qazib olish bilan 72 ta aktsiyadorlik jamiyati va 6 ta davlat unitar korxonasi shug'ullanadi va ularning tarkibida 114 ta shaxta, 125 ta ochiq kon, 68 ta boyitish va 1 ta briket fabrikasi mavjud.

Rossiya yoqilg'i-energetika balansida neftь va tabiiy gaz (70%) asosiy o'rin tutadi. SHuningdek, yiliga 991 mlrd kVt/s elektr energiyasi (2006 y.) hosil qilinadi. Hosil qilinayotgan elektr energiyasining 70% IES, 20% GES va 10% AES lar hissasiga to'g'ri keladi. Yirik IES va IEM – Markaziy iqtisodiy rayon va Volgabo'yi, Sibirь va Uzoq SHarqda, GES lar kaskadi Volga-Kama, (Volga-Kama GESlar kaskadi 11 ta gidrouzeldan iborat bo'lib, umumiy quvvati 14 mln. kVt/s), Yenesey va Angara daryolarida (Krasnoyarsk va Sayan-SHushensk GESlarining quvvati 6 mln. kVt.dan, Bratsk va Ust-Ilim GESlari quvvati 4 mln. kVt.dan ortiq) qurilgan. Bugungi kunda 9 ta AESlarida 29 ta energobloklar mavjud. Energotalab

sanoat korxonalari deyarli elektr uzatish liniyalari (LEP) atrofida joylashgan. Rossiya dunyodagi elektr energiyasi eksport qiluvchi mamlakatlardan biri. Mamlakatda yagona energo tizim mavjud. Bu energo tizimni «Rossiya YeES» ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati boshqaradi.

Qora metallurgiya – og'ir industriyaning o'zak tarmog'i bo'lib, temir rudasi qazib olish, cho'yan va po'lat eritish hamda xilma-xil prokat mahsulotlari ishlab chiqarish majmuasidan iborat. Qazib olinayotgan temir rudasining 80% ochiq usulda (yiliga 80 mln. t) amalga oshiriladi va uning 20% eksportga chiqariladi. Yiliga 40 mln. t cho'yan va 50 mln. t po'lat eritadi (dunyoda Xitoy, Yaponiya va AQSHdan so'ng 4-o'rinda). Uchta yirik qora metallurgiya rayoni mavjud: Ural (Nijniy-Tagil, Magnitogorsk, CHelyabinsk, Novotroitsk), Markaziy (Novotul'sk, Novolipetsk, Moskva, Nijniy Novgorod, Oskol va boshq.) va Sibir (Kuznetsk, G'arbiy Sibir, Novosibirsk, Krasnayarsk va boshq.).

Rangli metallurgiya tarkibiga mis, qo'rg'oshin-rux, nikel, kobalt, alyuminiy, titan-magniy, volfram-molibden, shuningdek, asl metallar va kamyob metallar eritish kiradi. Rangli metallurgiya og'ir (mis, qalay, qo'rg'oshin, rux va boshq.), yengil (alyuminiy, titan, magniy), asl metallar (oltin, kumush va platina) va kamyob (volfram, molibden, germaniy va boshq.) metallar eritish tarmoqlaridan iborat.

Mis korxonalari Ural (Krasnoural'sk, Revda, Kirovgrad, Mednogorsk va boshq.), SHimoliy (Monchegorsk), SHarqiy Sibir (Noril'sk), qo'rg'oshin-rux SHimoliy Kavkaz (Vladikavkaz), Ural (CHelyabinsk), G'arbiy Sibir va Uzoq SHarq, nikel-kobalt korxonalari SHarqiy Sibir (Noril'sk), Ural (Orsk, Rej, Verxniy Ufaley), SHimoliy (Monchegorsk), qalay korxonalari G'arbiy Sibir (Novosibirsk), alyuminiy korxonalari SHimoli-G'arbiy (Volxov, Boksitogorsk va boshq.), SHimoliy (Kandalaksha), Ural (Kamensk-Uralskiy, Krasnotur'ysk), Volgabo'yi (Volgograd), G'arbiy Sibir (Novokuznetsk), SHarqiy Sibir (Bratsk, SHElexov, Sayangorsk, Krasnoyarsk, Achinsk), titan-magniy korxonalari Ural (Berezniki, Solikamsk) iqtisodiy rayonlarida joylashgan. Rossiya dunyodagi rangli metallarni eksport qiluvchi yirik mamlakatlardan biri (jahon bozoriga yiliga 100-

140 ming tonna nikel, 2 mln. t. alyuminiy va boshq. chiqaradi). Eksportning rivojlanishida keyingi yillarda tolling operatsiyasi, ya'ni xorijiy sheriklarning xom ashyoni Rossiya metallurgiya korxonalarida eritib, so'ngra xorijga olib ketishi muhim rol o'ynamoqda.

Mashinasozlik majmuasi yuqori malakali ishchi, muhandis-texnik xodimlar to'planganligi bilan ajralib turadi. Keyingi yillarda mashinasozlik sanoatining zamonaviy va o'ta zamonaviy tarmoqlari – elektrotexnika, radioelektronika, priborsozlik, aviaraketa-kosmik sanoat tez rivojlanib bormoqda.

Rossiyada og'ir mashinasozlik korxonalari Yekaterinburg (metallurgiya va boshqa sanoat tarmoqlari uchun jihozlar), CHelyabinsk va Miass (og'ir traktorsozlik, ko'mir sanoati va avtomobilsozlik uchun jihozlar), Nijniy-Tagil (yuk vagonlari), Perm (kemasozlik va mashinasozlik uchun jihozlar), Kemerovo, Krasnoyarsk, Kisilevsk, Prokopevsk (tog'-shaxta jihozlari), energetika mashinasozligi Biysk, Barnaul, Taganrog, Sankt-Peterburg, Novosibirsk va boshq., stanoksozlik Markaziy, SHimoli-G'arbiy va Ural iqtisodiy rayonlarida, transport mashinasozligi Nijniy Novgorod, Ijevsk, Miass, Ulyanovsk, Moskva va Tol'yatti (engil avtomobillar), Povlova, Likino (avtobuslar), Engels (trolleybus), Moskva, Nijniy Novgorod, Ulyanovsk, Naberejnie CHelni, Miass (yuk avtomobillari), teplovoz, elektrovoz va vagonsozlik Nijniy Novgorod, Kolomna, Bryansk, Sankt-Peterburg, Ulan-Ude, Nijniy Tagil, Kaluga, Novocherkassk, Abakan, Altaysk, Mitishchi va boshq., dengiz va daryo kemasozligi Sankt-Peterburg, Astraxan, Nijniy Novgorod, Tyumen, Krasnoyarsk, Xabarovsk, Kosomol'sk-na Amur, Arxangel'sk (Severodvinsk shahrida atom suv osti kemalari ishlab chiqariladi), Murmansk va boshq., samolyotsozlik Moskva, Qozon, Samara, Voronej, Saratov, Smolensk, Rostov-Don, Taganrog, qishloq xo'jaligi mashinasozligi va traktorsozlik Sankt-Peterburg, CHelyabinsk, Vladimir, Lipetsk, Volgograd, Petrazavodsk va boshqa shaharlarda, shuningdek, deyarli yirik shaharlarda aniq mashinasozlik korxonalari joylashgan.

Kimyo sanoati tarkibiga tog'-kon kimyosi, asosiy kimyo, organik sintetik kimyosi, polimer materiallar ishlab chiqarish (kimyoviy tolalar, sintetik smola va

plastmassa, sintetik kauchik va boshq.), kimyoviy reaktiv va alohida toza mahsulotlar, lak-bo'yoq va maishiy kimyo kiradi. Asosiy kimyo (kislotalar, ishqor va mineral o'g'itlar) korxonalari SHelbkova, Novomoskovsk, Voskrasensk, Dzerjinsk, Perm (sul'fat kislotasi va boshq.), Perm, Boshkortoston, Oltoyda (soda), Voskrasensk, Sankt-Peterburg, Kingisepp, Solikamsk, Berezniki, Dzerjinsk, Novomoskovsk (Tula oblasti), Kemerovo va boshq. (fosfatli, kaliyli va azotli o'g'itlar, shuningdek, kompleks mineral o'g'itlar – ammosfos, nitrofos, karboammosfos), organik sintez kimyosi Qozon, Volgograd, Nijniy Tagil, Ufa, Salavat, Yekaterinburg, Sankt-Peterburg (plastmassa ishlab chiqarish), sun'iy va sintetik tolalar Tver, Ryazan, Kemerovo, Novosibirsk, Barnaul, Kursk, Krasnoyarsk va boshqa., sintetik kauchik va rezina mahsulotlari Omsk, Tomsk, Yaroslavl, Krasnoyarsk, Sankt-Peterburg, Ufa, Perm kabi shaharlarda rivojlangan.

SHuningdek, kimyo sanoati bilan texnik va texnologik jihatdan bog'liq neft-kimyo, mikrobiologiya, farmatsevtika, parfyumeriya-kosmetika sanoati yirik shaharlarda rivojlanib bormoqda (Moskva, Sankt-Peterburg, Krasnoyarsk, Xabarovsk, CHita, Novosibirsk, Yekaterinburg, Qozon va boshq.).

O'rmon sanoati boy o'rmon resurslariga tayanadi (Rossiyadagi o'rmon maydonlari 766 mln. ga bo'lib, AQSH, Kanada, SHvetsiya va Norvegiyadagi o'rmonlarni birgalikda olganda ham ko'pdir). Sanoat asoslarida foydalaniladigan o'rmonlar Sibir, Uzoq SHarq va Rossiya Yevropa qismining shimolida joylashgan bo'lib, tayyorlanayotgan yog'ochning 75%ni beradi. O'rmon sanoati majmuasida yog'och tayyorlash, yog'ochsozlik, tsellyuloza-qog'oz, gidroliz va yog'och kimyosi muhim o'rin tutadi. Yirik markazlari – SHimoliy rayonda (Kondopogo, Arxangel'sk, Kotlas, So'kto'vkar), Uralda (Krasnokamsk, Solikamsk va boshq.), Volga-Vyatka rayonida (Balaxna, Pravdinsk, Voljsk), Sibir va Uzoq SHarqda (Krasnoyarsk, Bratsk, Ust-Ilim, Selenginsk, Baykal'sk) joylashgan.

Yengil sanoat keyingi yillarda iqtisodiy qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda (xom-ashyo muammosi va xorij tovarlarining yuqori raqobatbardoshliligi tufayli) va sanoat ishlab chiqarishining umumiy hissasidagi ulushi qisqarib bormoqda. Yirik markazlari – Moskva, Sankt-Peterburg, Ivanova,

Yaroslavl, Orexovo-3uevo, Noginsk, Tver, Kostroma, Vyazniki va boshq. Asosan, ip-gazlama, shoyi va jun gazlama, to'qimachilik, tikuvchilik, teri-poyabzal, mo'yna, gilam to'qish va boshqa tarmoqlar rivojlangan.

Oziq-ovqat sanoatida qand-shakar, yog'moy, vino-aroq, krupa (yorma), choy, konserva va baliq tarmoqlari xom-ashyo rayonlarida, chunonchi, meva konservalari korxonalari SHimoliy Kavkaz, Volgabo'yi, go'sht kombinatlari chorvachilik rayonlari, baliq konservalari ishlab chiqarish port shaharlarida joylashgan. Iste'mol mintaqalarida yirik non, makaron, qandolatchilik, pivo va boshqa tarmoqlar rivojlangan.

Rossiya oziq-ovqat korxonalari xorij firmalari raqobatiga dosh bera olmayapti. Mamlakat katta miqdorda va ko'plab assortimentda oziq-ovqat mahsulotlarini import qiladi. Garchi, Rossiya baliqchilik xo'jaligi va baliqchilik sanoati murakkab holatda (Sobiq Ittifoqning parchalanishi tufayli baliq ovlash flotining yaxshi kemalari Ukraina, Boltiqbo'yi mamlakatlarida qoldi) bo'lishiga qaramay, eksportga baliqlarning qimmatli sortlari – treska, sel'd, kambala, sudak, losos, osetr va boshq. krab va ikra chiqaradi.

Qishloq xo'jaligi. Rossiya 1707,5 mln. ga yer fondiga ega bo'lib, haydaladigan yerlar, o'tloq, yaylov va ko'p yillik daraxtlar (bog' va uzumzorlar) 209,0 mln. ga dan iborat va qishloq xo'jaligiga yaroqli maydon jihatidan dunyoda 3-o'rinda (Xitoy va AQSH) turadi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida individual-xususiy, kollektiv (kooperativ) va davlat korxonalari shakllandi. Individual-xususiy xo'jaliklar yordamchi va fermer xo'jaliklardan iborat. Qishloq xo'jaligi korxonalarida yerdan foydalanishda mulkchilikning kollektiv-pay (ulush), fermer xo'jaliklarida individual (xususiy) va ijara shakli keng tarqalgan.

Erlarni qayta bo'lish jarayonida shaxsiy yordamchi xo'jaliklar roli ortib bormoqda va qishloq xo'jaligi mahsuloti qiymatida 37% ga yetdi. Kollektiv bog'dorchilik, sabzovotchilik, shaxsiy yordamchi xo'jaliklar va dala-hovli qurilishlari uchun yer ajratish davom etmoqda. Ayni vaqtda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi murakkab qiyinchiliklar Rossiyaning katta imkoniyatlar o'lkasi

bo'lishiga qaramay, ko'plab qishloq xo'jaligi mahsulotlarini import qilishga majbur qilmoqda. Rossiya hukumati mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida qishloq xo'jaligida agrar islohotlarni chuqurlashtirish va bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida yirik ko'lamda assignatsiyalar ajratmoqda. Ayni vaqtda, xorij investorlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish tadbirlarini ham amalga oshirmoqda.

Rossiyada tabiat zonalariga mos qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi (shimoldan-janubga tomon), ya'ni tundra va o'rmon-tundrada – bug'uchilik, ovchilik va baliqchilik bilan uyg'unlashgan holda, taygada chorvachilik, tayga janubi va aralash o'rmonlar zonasida (Noqoratuproq mintaqasi) kanop, donli (bug'doy, arpa, roj, tariq) va yem-xashak ekinlari, kartoshka va sabzavotchilik, sut, sut-go'sht chorvachiligi, bog'dorchilik, yirik sanoat markazlari atrofida cho'chqachilik va parrandachilik, G'arbiy Sibir janubida donli ekinlar va sut chorvachiligi, o'rmon-cho'l zonalarida ziroatchilik yetakchi soha bo'lib, donli va texnika ekinlari (bug'doy, roj, tariq, qand lavlagi, kungaboqar, makkajo'xori, kartoshka, ildiz mevalilar), yirik shoxli hayvonlar, cho'chqachilik va parrandachilik rivojlangan.

Rossiyaning Yevropa qismi cho'l mintaqalarida (Kuban, O'rta Povol'je, Janubiy Ural) bug'doy va makkajo'xori, chorvachilik, G'arbiy Sibir rayonlarida bahori bug'doy, tabiiy yaylovlarida go'sht-sut chorvachiligi, qurg'oqchil rayonlarida qo'ychilik va sut-go'sht chorvachiligi, Uzoq SHarqning Primor'ye o'lkasida musson iqlimi alohida dehqonchilik – sholichilikni, cho'l va chala cho'llarda (Volgabo'yi, Qalmig'iston va Dog'iston) go'sht-jun yo'nalishidagi qo'ychilik, tog'li rayonlarda (Kavkaz, Oltoy, Sayan va boshq.) tog'-yaylov chorvachiligi rivojlangan, subtropik zona (Krasnadar o'lkasining Qora dengiz bo'yida) tamaki, choy va subtropik mevachilikka ixtisoslashgan. SHahar va sanoat markazlarida shahar atrofi xo'jaligi (sabzavot, rezavorlar, gulchilik, sut-go'sht, parrandachilik, cho'chqachilik va baliq yetishtirish (sun'iy ko'llarda), teplitsa

xo'jaliklari) shakllangan va shaharlar aholisining qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulot qiymatining 40,0% dehqonchilik va 60,0% chorvachilikka to'g'ri keladi. Dehqonchilikda donli ekinlar (55 mln. ga) yetakchi o'rin tutadi. Donli ekinlar tarkibida bug'doy, roj, arpa, tariq, grechixa, qo'noq, makkajo'xori, dukkakliklar – gorox, loviya, yasmiq, soya asosiy o'rin tutadi. Donli ekinlar tarkibida bug'doy eng ko'p ekiladi (24,0 mln. ga, yillik hosil 80-85 mln. t., ba'zi yillari 100 mln. t.). SHimoliy Kavkaz, G'arbiy Sibir janubi, Markaziy-Qora tuproq va Uralning janubiy rayonlari tovar bug'doy yetishtiruvchi asosiy rayonlardir. Arpa, tariq, roj yetishtirish bo'yicha Rossiya dunyoda 4-o'rinda (Xitoy, AQSH, Hindiston) turadi. Makkajo'xori don uchun (SHimoliy Kavkaz iqtisodiy rayoni) va Noqoratuproq mintaqasida silos uchun yetishtiriladi. Grechixa, tariq va sholi asosiy oziq-ovqat ekinlaridan. Yiliga Rossiya 0,8 mln. t grechixa oladi. SHoli SHimoliy Kavkaz, Povolje, Primorsk o'lkasida yetishtiriladi va ekin maydonlaridagi hissi 0,2-0,3% ni tashkil qiladi.

Texnika ekinlaridan kungaboqar Markaziy Qora tuproq, SHimoliy Kavkaz, Povolje, Ural, G'arbiy Sibir (janubi), soya Uzoq SHarqda (Amur viloyati, Primorsk va Xabarovsk o'lkalarida) yetishtiriladi. Kanop SHimoli-G'arbiy, SHimoliy (Vologda viloyati), Markaziy (Kostroma va Yaroslavl viloyatlari) iqtisodiy rayonlarida ekiladi va dunyoda yetakchi o'rinda turadi. Qand lavlagi asosan shakar olish uchun Markaziy Qoratuproq (mamlakatdagi 50% hosil to'g'ri keladi), SHimoliy Kavkaz (25% yalpi hosil) va Volga bo'yi (10%) Markaziy, Volga-Vyatka, Ural, G'arbiy Sibir (janubi) va Uzoq SHarq iqtisodiy rayonlarida yetishtiriladi.

Kartoshka 3 mln. ga.dan ortiq yerga ekiladi va yiliga 40,0 mln. t.dan ortiq yalpi hosil olinadi (dunyoda 1-o'rinda) va asosan Volga-Vyatka va Markaziy iqtisodiy rayoniga (30% ortiq ekin maydonlari) to'g'ri keladi.

CHorvachilik yirik shoxli hayvonlar, cho'chqachilik, qo'ychilik va echkichilik, parrandachilik, yilqichilik, tuyachilik, asalarichilik, baliqchilik tarmoqlaridan iborat. SHuningdek, yilqichilik (Buryatiya, Oltoy, Tuva va boshq.),

bug'uchilik (CHekka SHimol), asalarichilik (Boshqortoston, Uzoq SHarq) va parrandachilik (Sibirь, Uzoq SHarq) rivojlangan. CHorvachilikda ham dehqonchilik kabi zonal ixtisoslashuv xarakterli. Qo'ychilik va echkichilik cho'l zonasi va tog'-oldi rayonlarida (jun va yung uchun), sut, sut-go'sht chorvachiligi o'rmon, o'rmon-cho'l va cho'l zonalarida tarqalgan. Ayni vaqtda, keyingi yillarda sut va go'sht chorvachiligi sezilarli o'zgarishlar (chorva bosh sonlarining qisqarishi va hayvonlar mahsuldorligining kamayishi, sut va go'sht yetishtirishning qisqarishi) amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bilan bog'liq.

Xizmatlar sohasi. RF milliy iqtisodiyotida moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari hissasining yuqori bo'lishiga qaramay, XX asr 90-yillari o'rtalaridan boshlab xizmatlar sohasi tez rivojlanib bormoqda va unda bandlar hissasi tobora ortmoqda. Ayniqsa, aloqa, turli tayyorlov kompaniyalari, logistika tizimi, moliya-bank-kredit, sug'urta va boshqa bozor infratuzilmalari tez rivojlanmoqda. Ishlab chiqarish tizimlariga ilmiy-texnika yutuqlarini qo'llash va zamonaviylashuv jarayoni iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xos jamiyatning juda tez informatsiyalashuviga va informatsion jamiyatga aylanishiga olib kelmoqda. Bugungi dunyodagi har qanday mamlakatning o'rni informatsiyalashgan jamiyatga qanchalik qo'shilganligi bilan belgilanmoqda. Rossiya kompyuterlar bilan ta'minlanganligi va kommunikatsiya tizimlarining tez rivojlanishi orqali mamlakatning informatsiya ta'minoti sifat jihatdan mutloqo yangi bosqichga kirmoqda hamda mamlakat intellektual salohiyatini va iqtisodiyotini istiqbolli rivojlanishiga shart-sharoit hozirlamoqda.

Transporti. Rossiya hozirgi zamon transportining barcha turlariga ega. Mamlakat yuk aylanmasida temir yo'l transporti (52,7%), quvur (29,0%), dengiz (13,0%) va daryo transporti (3,7%) muhim o'rin tutadi.

Temir yo'l transporti Rossiyada asosiy transport turidir. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 87 ming km bo'lib, 1/3 qismi elektrlashtirilgan. Birinchi temir yo'l Moskva-Sankt-Peterburg o'rtasida 1851 yilda qurilgan. Rossiya Yevropa qismidagi temir yo'llar radial joylashgan bo'lib, Moskvada qo'shiladi. Mamlakat barcha iqtisodiy rayonlar va jahon mamlakatlari bilan temir yo'llar orqali

bog'langan. 1892 yilda qurilishi boshlangan va 1916 yil tugallangan Transsibir magistrali va 1913 yil qurilgan Tyumen'-Omsk-Ekaterinburg temir yo'l liniyasi Sibirga ikkinchi temir yo'lni ochdi. SHuningdek, kenglik yo'nalishi bo'yicha Janubiy Sibir temir yo'llari, Turkiston-Sibir magistrali, 1980 yili qurilgan Baykal-Amur magistrali (BAM) va boshqa temir yo'llar mamlakat yuk va yo'lovchi aylanmasida muhim o'rin tutadi. Keyingi yillarda, Rossiya Finlyandiya va uning portlari orqali xorijga chiqish maqsadida 126 km.li temir yo'lni Kareliyada qurishga kirishdi. Rossiyada temir yo'llarni zamonaviylashtirish va tez yurar poezdlar qatnovini yo'lga qo'yish (Moskva-Sankt-Peterburg va boshq.) maqsadida katga ishlar amalga oshirilmoqda.

Dengiz transporti. Rossiya tashqi iqtisodiy aloqalarida dengiz transporti katta rol o'ynaydi. Mamlakat dengiz chegaralarining uzunligi 40 ming km. Dengiz savdo flotining hajmi 8,3 mln. t-detvoyt bo'lib, 8 ta paraxodchilik kompaniyasiga ega. Yirik portlar – Baltiysk, (Kaliningrad viloyatida, muzlamaydi), Sankt-Peterburg, Viborg, Novorossiysk, Taganrog, Murmansk, Naxodka, Arxangel'sk, Vladivostok, Vanino va 30 dan ortiq kichik portlarga ega.

Daryo transporti. Rossiya – daryolar mamlakati bo'lib, asosiy daryolarning ko'pchiligi kema qatnovi uchun juda qulay. Ichki suv yo'llarining uzunligi 80 ming km.

Volga-Kama daryo havzasi iqtisodiy jihatdan katta o'rin tutadi va Rossiya Yevropa qismini Volga-Baltika, Belomor-Baltika va Volga-Don kanallari orqali (kemalar qatnaydi) bog'lanishi tufayli Volga daryosi yagona suv tizimi sterjiniga, Moskva esa 5 ta dengiz daryolari portiga aylandi.

Rossiya Yevropa qismining shimolida Suxona, SHimoliy Dvina irmoqlari bilan, Onega, Svir, Neva, Sibir va Uzoq SHarqda Amur, Yenisey, Lena, Ob va uning irmoqlari kema qatnovi uchun qulay bo'lib, ularda don, baliq, o'rmon (yog'och), ko'mir, metall va jihozlar, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa yuklar tashiladi.

Quvur transporti mamlakat transport tizimida asosiy o'rin tutadi va yuk aylanmasidagi hissassi ortib bormoqda. Magistral quvur trassalarining uzunligi 210

ming km dan ortadi. Yangi transkontinental quvur trassalari loyihalari tez sur'atlarda amalga oshirilmoqda.

Avtomobil transporti. Avtomobil transportining milliy iqtisodiyotda qisqa masofalarga yuk tashishda va boshqa transport turlari yo'q rayonlarda (Rossiya Yevropa qismi, SHimoliy, Sibir va Uzoq SHarq rayonlari) muhim o'rin tutadi. Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 854 ming km (shundan qattiq qoplanga ega yo'llar 652 ming km). Rossiya transport tizimidagi eng muhim muammo bu avtomobil yo'llaridir. Mutaxassislarning ta'kidlashicha mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari uchun 1,5 mln. km avtomobil yo'llari zarur. Qattiq qoplamli avtomobil yo'llari (asfalt, beton, shag'alli yoki aralash) mavjud yo'llarning 75%ini tashkil qilib, buning 558 ming km umumfoydalanish va 45,4 ming km federal ahamiyatga ega, xolos (AQSHda 300 ming km federal ahamiyatga ega yo'lbor). Har bir km² hududga 24 km avtomobil yo'llari to'g'ri keladi. Rossiya avtomobil yo'llarining rivojlanganlik darajasiga ko'ra uchta: Yevropa qismi, Janub va SHimoliy (Sibir va Uzoq SHarq) zonalarga bo'linadi.

Havo transporti rivojlangan bo'lib, MDH va jahonning ko'pgina mamlakatlari bilan havo liniyalari orqali bog'langan. Yirik yo'lovchi va yuk tashuvchi zamonaviy samolyotlar, vertolyotlar parkiga ega. Ayniqsa, havo transporti SHimol, Sibir va Uzoq SHarq rayonlari uchun muhim o'rin tutadi. Yirik zamonaviy xalqaro aeroportlar – Moskva (Vnukovo, SHeremet'eva, Bikov, Domodedovo), Sankt-Peterburg (Pul'kova), Saratov, Volgograd, Novorossiysk va boshqa shaharlarda joylashgan.

Iqtisodiy rayonlari. Rossiya iqtisodiy rayonlari-tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllangan. Rossiya hududida 11 ta Markaziy, Markaziy Qora tuproq, Volga-Vyatka, SHimoliy, SHimoli-G'arbiy, Volgabo'yi, SHimoliy Kavkaz, Ural, G'arbiy Sibir, SHarqiy Sibir, Uzoq SHarq iqtisodiy rayonlari shakllangan. Kaliningrad viloyati alohida kichik rayon.

1. Markaziy iqtisodiy rayon. Maydoni 485,1 ming km². Aholisi 30,4 mln. kishi. Sertarmoq mashinasozlik, kimyo, o'rmon, yengil (to'qimachilik),

poligrafiya, oziq-ovqat (konditer va boshq.) sanoati rivojlangan. Sut-go'sht chorvachiligi, kartoshka, sabzavot, kanop, qand lavlagi va boshq. yetishtiriladi. Mamlakat poytaxti Moskva – yirik megalopolis siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy, ilmiy-texnik va transport markazi. SHuningdek, iqtisodiy rayonda Ryazan, Tula, Vladimir, Smolensk, Bryansk, Tver, Kostroma, Ivanovo, Kaluga va boshq. yirik sanoat markazlari joylashgan.

2. SHimoli-G'arbiy iqtisodiy rayon. Hududi 196,5 ming km², aholisi 8,05 mln. kishi. Industrial rayon. Xo'jalik ixtisoslashuvida ilmtalab va yuqori malakali mehnatga asoslangan mashinasozlik, rangli metallurgiya, kimyo va yengil sanoat rivojlangan. Sut chorvachiligi, cho'chqachilik, parrandachilik, sabzavot va kartoshka, kanop yetishtiriladi. Qulay transport-geografik mavqega ega. Yirik markazlari – Sankt-Peterburg, Novgorod, Pskov va boshq.

3. SHimoliy iqtisodiy rayon. Hududi 1466,3 ming km², aholisi 5,9 mln. kishi. Xo'jalik ixtisoslashuvida yoqilg'i, qazib beruvchi va o'rmon sanoati yetakchi o'rin tutadi. Rangli va qora metallurgiya, mashinasozlik va kimyo sanoati rivojlangan. Bug'uchilik, baliqchilik (baliq sanoati), janubda-em-xashak ekinlari asosida sut chorvachiligi yetakchi o'rin tutadi. Kanop yetishtiriladi. Yirik markazlari – Murmansk, Arxangel'sk, Vologda, Petrozavodsk, Сыктывкар, Kondapoga, Segeja, Kotlas, Vorkuta va boshq.

4. Markaziy Qoratuproq iqtisodiy rayoni. Hududi 167,7 ming km², aholisi 7,9 mln. kishi. Rayonda metallurgiya, mashinasozlik sanoati uchun jihozlar ishlab chiqarish, kimyo va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi (donli va texnika ekinlari – bug'doy, makkajo'xori, arpa, roj, qand lavlagi va kungaboqar), kartoshka va sabzavot, bog'dorchilik va shahar atrofi xo'jaligi, chorvachilik rivojlangan. Yirik markazlari – Voronej, Kursk, Lipetsk, Tambov, Belgorod, Michurinsk, Yelets va boshq.

5. Volga-Vyatka iqtisodiy rayoni. Hududi 263,3 ming km², aholisi 8,04 mln. kishi. Iqtisodiy rayon mashinasozlikka ixtisoslashgan bo'lib, kimyo va o'rmon sanoati rivojlangan. Transport mashinasozligi (avtomobilsozlik, kemasozlik), metalni talab qilmaydigan mashinasozlik (priborsozlik va

elektrotexnika) va stanoksozlik yetakchi sohalaridir. Qishloq xo'jaligi sertarmoq, chorvachilikda yirik shoxli hayvonlar, qo'y va cho'chqachilik rivojlangan, dehqonchilikda kartoshka, don va texnika ekinlari yetishtiriladi. Yirik markazlari – Nijniy Novgorod, Pavlovo, Saransk, Dzerjinsk, Kirov, CHEboksari va boshq.

6. Volgabo'yi iqtisodiy rayoni. Hududi 536,4 ming km², aholisi 16,9 mln. kishi. Xo'jalik ixtisoslashuvida neft qazib chiqarish va neftni qayta ishlash, gaz va kimyo, shuningdek, elektroenergetika va murakkab mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish yetakchi sohalaridir. Ziroatchilikda donli ekinlar (rojb, bug'doy), texnika ekinlari (kungaboqar, gorchitsa), sabzavot va poliz ekinlari (Volga va Axtuba daryolari oralig'ida), go'sht-sut chorvachiligi rivojlangan. Yirik markazlari – Samara, Qozon, Volgograd, Saratov, Tol'yatti, Ulyanovsk, Naberjnie CHelni va boshq.

7. SHimoliy Kavkaz iqtisodiy rayoni. Hududi 355,1 ming km², aholisi 17,7 mln. kishi. Qishloq xo'jaligi yuqori darajada rivojlangan va sertarmoq, sanoatda – mashinasozlik, yoqilg'i va oziq-ovqat sanoati yetakchi sohalar. Mamlakatning yirik qishloq ho'jaligi rayoni. Donli ekinlar (bug'doy, makkajo'xori va boshq.), texnika ekinlari (qand lavlagi, tamaki, kungaboqar va boshq.), sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik, choy (Krasnodar o'lkasi) yetishtirish rivojlangan. Yirik sanoat markazlari – Rostov-Don, Taganrog, Millerovo, Novocherkassk, Krasnodar va boshqalar.

8. Ural iqtisodiy rayoni. Hududi 824 ming km², aholisi 20,4 mln. kishi. Mamlakatning «xazinas», yirik va xilma-xil foydali qazilmalarga juda boy. Qazib beruvchi sanoat, metallurgiya (qora va rangli metallurgiya), mashinasozlik, kimyo va o'rmon sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Qishloq xo'jaligida, shimol, o'rta va janubiy mintaqalar agroiqlimiy omillar va rel'ef asosida bir-biridan farqlanadi. Janubda don-chorvachilik yo'nalishida qoramolchilik, qo'ychilik va echkichilik (mashhur Orenburg echkilari), Boshkirdistonda asalarichilik rivojlangan. Yirik shaharlari – CHelyabinsk, Yekaterinburg, Nijniy Tagil, Perm, Ufa, Magnitogorsk va boshq.

9. G'arbiy Sibir iqtisodiy rayoni. Hududi 2427,2 ming km², aholisi 15,1

mln. kishi. Yoqilg'i sanoati (neft, tabiiy gaz va ko'mir qazib chiqarish), qora metallurgiya, kimyo, neft-kimyo, mashinasozlik va don yetishtirishga ixtisoslashgan. SHuningdek, bug'uchilik, baliqchilik, darrandachilik, qo'ychilik, parrandachilik, Tog'li Oltoyda echkichilik, qo'toschilik rivojlangan. Yirik markazlari – Novosibirsk, Omsk, Tomsk Tyumen', Kemerovo, yangi shaharlar – Nadym, Medvejye, Urengoy va boshq.

10. SHarqiy Sibir iqtisodiy rayoni. Hududi 4122,8 ming km², aholisi 9,1 mln. kishi. Xo'jalik ixtisoslashuvida elektroenergetika, rangli metallurgiya, o'rmon va tsellyuloza-qog'oz sanoati yetakchi o'rin tutadi. Qishloq xo'jaligi rayon janubida rivojlangan bo'lib, go'sht, go'sht-jun chorvachiligi (yaylov va o'tloqlar qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 30% dan ortig'ini tashkil qiladi), donli ekinlar (bug'doy, tariq, arpa), sabzavotchilik va kartoshkachilik, shimolda bug'uchilik va ovchilik xarakterli. Yirik markazlari – Krasnoyarsk, Irkutsk, Ulan-Ude, Chita, Noril'sk, Bratsk va boshq.

11. Uzoq SHarq iqtisodiy rayoni. Hududi 6125,9 ming km², aholisi 7,4 mln. kishi. Uzoq SHarq xo'jaligida-metallurgiya (qora va rangli metallurgiya), olmos qazib chiqarish, baliqchilik, o'rmon va tsellyuloza-qog'oz, kema remonti tarmoqlari yetakchi o'rin tutadi. Qishloq xo'jaligi janubiy mintaqalarda rivojlangan (musson iqlimi tufayli), soya, sholi, sabzavot, kartoshka yetishtiriladi. Yirik shoxli hayvonlar boqiladi. Taygada ovchilik muhim o'rin tutadi. Juda katta baliq zahiralari mavjud. Yirik shaharlari – Komsomol'sk-Amur, Xabarovsk, Vladivostok. SHuningdek, Vladivostok, Naxodka, Vanino, Yujniy Saxalinsk, Petropovlovsk-Kamchatka shaharlari dengiz port shaharlari bo'lib, Rossiya tashqi savdosi amalga oshiriladi.

Kaliningrad viloyati RFda anklav hududdir. Bugungi kunda «erkin iqtisodiy mintaq» deb e'lon qilindi. Hududi 15,1 ming km², aholisi 932 ming kishi. Xo'jalikda bosh ixtisoslashuv – baliq sanoati, mashinasozlik, tsellyuloza-qog'oz ishlab chiqarish. Sut-go'sht chorvachiligi va yem-xashak ekinlari yetishtirish, kurort xo'jaligi (Pionersk, Svetlogorsk va boshq.) rivojlangan. Kaliningrad viloyatining istiqboldagi rivojlanishi uning «erkin iqtisodiy mintaq»

maqomi bilan bog'liq. Yirik markazlari – Kaliningrad, Chernyaxovsk, Sovetsk, Baltiysk, Gusev va boshq.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Rossiyada bozor tamoyillarining hayotga tadbiq etilishi bilan mamlakat xorijiy sheriklar uchun tobora ochiqroq bo'lib bormoqda. Tashqi savdoni samarali tashkillash, uning tarkibi va dinamikasi, ko'p jihatdan milliy iqtisodiyotning kelgusida holati, muammo va rivojlanish istiqbolini belgilaydi. Rossiya iqtisodiyotida tashqi savdo roli ortib borayotganligiga qaramay, dunyo eksport va importining 1,2-1,5% tashkil qilmoqda, xolos. Tashqi savdo ulushi yalpi ichki mahsulot hajmida 25%ga yetmaydi va iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan sezilarli darajada past.

Rossiya tashqi savdosida an'anaviy MDH mamlakatlariga «bog'liqlik» saqlanib qolgan bo'lsada, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar bilan aloqalari tez rivojlanib bormoqda. 1994 yil Rossiya va Yevropa Ittifoqi o'rtasida savdo-sotiq shartnomasi imzolandi. Bugungi kunda Rossiya eksportining 40% aynan Yevropa Ittifoqi bilan savdo aloqalariga to'g'ri kelmoqda. Asosiy savdo sheriklari Germaniya, Italiya, Yaponiya va Buyuk Britaniyadir. Tashqi savdoda tovar tarkibi o'zgardi va dunyo bozoriga qazib chiqarilayotgan neftning 40%, tabiiy gazning 30% dan ortig'i, 30% neft mahsulotlari, 35% dan ortiq mineral o'g'itlar, 25% yog'och, 60% dan ortiq faner chiqarmoqda. Yoqilg'i-energetika resurslari Rossiya eksportining 45,9% tashkil qiladi. Shuningdek, xom ashyo va yarim fabrikatlar, metall, temir rudasi, po'lat, alyuminiy va boshqa mahsulotlar chiqarmoqda. Ammo, mashinasozlik mahsulotlari mamlakat eksportining 9% ni tashkil qiladi, xolos. Keyingi yillarda eksportga harbiy sanoat majmuasi mahsulotlari chiqarish kengayib bormoqda.

Rossiya importida mashinasozlik jihozlari va transport vositalari (30% atrofida) yetakchilik qiladi. Ayniqsa, Rossiya ichki bozorini import televizor, xolodilnik, videomagnitofon, shaxsiy kompyuter, nusxa ko'chiruvchi va ko'paytiruvchi apparatlar va boshqa murakkab maishiy texnika egallab oldi. Ikkinchi o'rinda-oziq-ovqat mahsulotlari (35%dan iborat bo'lib, go'shtga bo'lgan ehtiyojning 60%, sariyog'ga bo'lgan ehtiyojning 51% va o'simlik yog'iga bo'lgan

ehtiyojning 30% ni qondirmoqda) turadi. Ochiq iqtisodiy siyosat ilmiy-texnik hamkorlikning kengayishiga olib kelmoqda. Germaniya, AQSH, Finlyandiya, Avstriya, SHarqiy Yevropa mamlakatlari kompaniyalari bilan birgalikda bu yo'nalishda tadbirkorlik ishlari kengaymoqda. Ayni vaqtda, Rossiya kapitali ishtirokida xorijiy sheriklar bilan birgalikda tadbirkorlik ishlari faollashmoqda. Xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlikning istiqbolli shakli – erkin iqtisodiy mintaqalar tashkillanmoqda (Kaliningrad viloyatida).

Rossiya-O'zbekiston munosabatlari juda uzoq tarixga ega. XX asrning 90-yillaridan ikki mamlakat o'rtasida teng huquqli aloqalar o'rnatildi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning 1998, 2001, 2004 yilda Rossiyaga va Rossiya Prezidenti V.Putinning 2000 va 2003 yillarda, amaldagi Prezident D.Medvedovning 2009 yilda O'zbekistonga tashrifi vaqtida iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorlikning huquqiy asoslari yaratildi va munosabatlar jadal rivojlanib bormoqda. 2006 yildan boshlab O'zbekiston Yevrosiyo ittifoqiga kirishi bilan Rossiya-O'zbekiston o'rtasida iqtisodiy aloqalarning mutlaqo sifat jihatdan yangi bosqichi boshlandi.

2006 yilda Rossiya – O'zbekiston o'rtasida tovar ayriboshlash 1828,1 mln. dollarga yetdi. O'zbekiston Rossiyaga paxta tolasi, avtomobil, meva-sabzavot mahsulotlari qurilish materiallari, uran eksport qilsa, Rossiyadan mashinasozlik jihozlari, elektrotexnika va elektronika mahsulotlari, transport vositalari, qora metall, farmatsevtika hamda boshqa mahsulotlarni import qiladi. Ilmiy-texnik va madaniy aloqalar rivojlanib bormoqda. Rossiya bilan hamkorlikda O'zbekistonda 520 dan ortiq qo'shma korxonalar tashkil etilgan. Rossiyaning 40 dan ortiq kompaniyasi O'zbekiston hududida o'z vakolatxonalariga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafvsizlikka tahdid, barqarorlik shartini va taraqqiyot kafolatlari. –T., 1997.
Hasanov I. O'zbekiston tabiiy geografiyasi (ma`ruzalar matni). Toshkent. O'zMU. 2000.
2. Soliev A va boshqalar Mintaqaviy iqtisodiyot. Toshkent 2003.
3. Asanov G.R., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. T., "O'qituvchi", 1994.
4. Ahmedov e.-O'zbekiston Respublikasi (o'zbek, ingliz tillarida), T., "O'zbekiston", 1998.
5. Akramov Z.M., Rafikov A.A. Proshloe, nastoyashee i budushee Aral'skogo morya. Tashkent. 1990.
6. Babushkin L.N., Kogay N.A., Zokirov SH.S. Agroklimaticheskie usloviya sel'skogo xozyaystva Uzbekistana. Tashkent. Mehnat, 1975.
7. Bogdanov O.P. Jivotnie Uzbekistana. Tashkent, O'qituvchi, 1975.
8. Djumaev T. Gori Uzbekistana. Priroda, xozyaystvo, otdix. Tashkent, Fan, 1989.
9. Zokirov SH.S. Landshaftshunoslik asoslari. Toshkent, Universitet, 1994.
10. Mo'minov A va boshqalar. O'zbekiston SSR tabiiy geografiyasi. Toshkent. O'qituvchi, 1984.
11. .«2002-2004 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit va tabiiy resurslardan foydalanishning xolati to'g'risida Milliy ma`ruza» T., 2005.